

**1925-1941-YILLARDA O'ZBEKISTON SSRDA AHOLIGA TIBBIY XIZMAT
KO'RSATISH HOLATI****Jabborov Avazbek ¹****MAQOLA
MA'LUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 13.10.2024**Revised: 14.10.2024**Accepted: 15.10.2024***KALIT SO'ZLAR:***tibbiy xizmat,
davolash muassasalari,
onalik va bolalikni
saqlash muassasalari,
sanitariya-profilaktika
muassasalari.*

Umum o'zbek sovetlarining Buxoroda bo'lgan birinchi qurultoyida (1925-yil 13-17-fevral) "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida deklaratsiya" qabul qilindi. Shundan boshlab mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va tibbiyot sohasida bir qator islohotlar olib borildi. Ushbu maqolada 1925-1941-yillar davomida O'zbekiston SSRda Tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida olib borilgan say-harakatlar, zamonaviy kasalxona va dorixonalar qurilishi, malakali tibbiyot xodimlarini tayyorlash maskanlarining tashkil etilishi haqida so'z yuritiladi.

KIRISH Sovet tuzumi davrida O'zbekiston tibbiyoti sohasida ham jiddiy o'zgarishlar joriy etildi. O'zbekiston SSR tashkil etilgach mamlakatda tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish borasida bir qator amaliy ishlar olib borildi. Samarali tibbiy xizmatdan foydalanish ijtimoiy huquq hisoblanib, bundan butun o'zbek xalqi to'laqonli ravishda foydalanish huquqiga ega edi. Amirlik va xonliklar davrida Turkistonda tibbiyotning holati og'ir ahvolda edi. Aholi oliy ma'lumotga ega bo'lmagan, umuman olganda zamonaviy tibbiyotdan butunlay yiroq bo'lgan nodon tabiblarga borib davolanar edi. Ammo, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari tugatilib, ularning o'rnida tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xiva Xalq Sovet Respublikasidagi joriy tibbiyotning ahvolini o'nglash borasida qator choralar ko'rib, amaliy tadbirlar bajarilgan. Biroq, butun Turkistondagi tibbiyotning ahvolini yaxshilash borasidagi chuqur islohotlar 1925-yilda O'zbekiston SSRning tashkil etilishi bilan boshlandi. Masalan, O'tgan asrning 20-yillarida bu borada bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Sog'liqni saqlash xalq komissarligi tuzilib, o'lkadagi mavjud kasalxona, ambulatoriyalar va boshqa tibbiy muassasalar davlat tasarrufiga

o'tkazildi. Davolash va epidemiyalarga qarshi kurashish uchun sayyor otryadlar tuzildi, bakteriologik laboratoriya ishga tushirildi, umumiy o'rinlar soni 7 mingga yaqin kasalxonalar ochildi. O'lkada chinchechak, vabo, rishta, bezgak, traxoma singari kasalliklar asosan tugatildi, sil, teri xastaliklari va boshqa kasalliklar sezilarli darajada kamaydi. O'lkada tibbiyot tizimining moddiy-texnika bazasi bosqichma-bosqich kengaytirilib, mustahkamlandi. Toshkentdagi yirik kasalxonalarda tor mutaxassisliklar bo'yicha ixtisoslashgan ko'z, quloq, asab kasalliklari bo'limlari va boshqa shunga o'xshash bo'linmalar tashkil etildi. Samarqandda yangi kasalxona, Qo'qonda bolalar kasalxonasi, Farg'onada bemorlarni fizioterapevtik usullar bilan davolaydigan maxsus shifoxona ochildi. Toshkentda shu sohadagi kichik xususiy kasalxona negizida 1919-yili 150 o'ringa mo'ljallangan fizioterapiya instituti barpo etildi.

1920-yilda Toshkentda silga qarshi dastlabki dispanser ish boshladi. 1922-yili vrachlik-sanitariya nazorati tashkiloti tuzildi. 1924-yili Toshkentda teri-tanosil kasalliklari dispanseri, Buxoroda esa tropik tibbiyot instituti ochildi. 1924-yilga kelib Turkistonda 6 tropik stansiya va uning joylardagi tarmoqlari ishlab turdi. 1924-yili respublikada 53 kasalxona, 151 ambulatoriya (ularning 79 tasi qishloq joylarida), 40 feldsherlik punkti va boshqa muassasalar bor edi.

Revolutsiyaga qadar yevropacha meditsina, dorixonalar, dori-darmonlar rus aholisi yashaydigan yangi shaxarlargagina xos edi. Eski shaharlarda, shuningdek, qishloqlarda yevropalik vrachlar deyarli yo'q edi, aholi mahalliy nodon tabiblarga borib davolanar edi. 1926-yil 1-oktabrda respublikada 474 ta davolash-sanitariya muassasalari, shulardan 306 ta davolash muassasalari, 101 ta onalik va bolalikni saqlash muassasalari, 9 ta bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari, 58 ta sanitariya-profilaktika muassasalari ishlab turgan edi. 1928-yilning 1-oktabrida dastlabki ma'lumotlarga qaraganda davolash, sanitariya muassasalarining soni 836 taga yetdi, shundan 404 tasi davolash muassasalari, 137 ta onalik va bolalikni saqlash, 18 ta bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari, 76 ta sanitariya-profilaktika muassasalari bo'lib hisoblanadi.

Davolash-sanitariya muassasalari shaxobchalari rivojlanib borganligi bilan bir qatorda shifokorlar soni ham ancha ko'paydi. Shifokorlar soni qishloq joylardagiga qaraganda shaharlarda tezroq ko'paymoqda. Shaharlarda 1 ta shifokorga 1926-1927-yillarda 1375 kishi, 1927-1928-yillarda 1263 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, qishloq joylarida 1926-1927-yillarda 46760 kishi va 1927-1928-yillarda 33597 kishi to'g'ri keldi.

Qishloq joylarida tibbiyot xizmati ko'rsatish shu vaqtgacha butunlay qoniqarsiz edi. Biroq, sog'liqni saqlash sohasida ham garchi hali yetarli bo'lmasada, muayyan siljish ro'y

berayotgan edi. Aholi zich joylashgan yerlarning ko'pchiligida bezgak manbalari butunlay tugatildi, sanitariya-profilaktika tadbirlari o'tkazish sohasida, onalik va bolalikni saqlash sohasida ba'zi yutuqlarga erishildi. Sog'liqni saqlashning navbatdagi vazifalari quyidagilardan iborat edi: mamlakatning sanitariya-gigiyena sharoitini yaxshilash, davolash shaxobchalarini ayniqsa qishloqlarda kuchaytirish, shahar va qishloq aholisiga tibbiyot xizmati ko'rsatishdagi nomutanosiblikni asta-sekin tugatish, yuqumli kasalliklar bilan kurashishni kuchaytirish va kurort ishlarini tashkil etish.

Davolash muassasalarini butun choralar bilan kengaytirish va tibbiyot ishlarini, ayniqsa, qishloqlarda yoppasiga kengaytirish asosiy ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Kasalxonalarda har bir o'ringa to'g'ri keladigan kishilar sonini ko'paytirib, 1928-yildagi 1940 kishidan 5 yillik oxiriga borib 889 kishiga keltirishni ko'zda tutgan besh yillik reja-dastur ishlab chiqildi.

O'zbekiston SSRda tibbiyotning ahvolini yaxshilash maqsadida mamlakatda tibbiyot ta'limini yo'lga qo'yish va mahalliy aholidan tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashga ham alohida urg'u berildi. Toshkentda dastlabki tibbiyot bilim yurti, oliy tibbiyot maktabi ochildi, feldsherlik va qisqa muddat o'qitiladigan jarrohlik kurslari tashkil qilindi. Oliy tibbiyot maktabi 1920-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti tarkibidagi tibbiyot fakultetiga aylantirildi. Bu fakultetda yoshlarni o'qishga tayyorlash uchun respublikaning ko'pgina shaharlarida ishchi fakultetlari ochilib, ularga o'zbek hamda boshqa mahalliy aholi yigit qizlari jalb etildi. O'rta Osiyo Davlat universiteti oliy ma'lumotli tibbiyot xodimlar tayyorlashdagina emas, balki joylarda yangi tibbiyot o'quv yurtlari ochishda ham muhim o'rin tutdi. 1930-yilda tibbiyot fakultetini Univeristet tarkibidan ajratish va mustaqil institutlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1930-yilda O'zbekiston tarixida birinchi marta Samarqandda mustqail ravishda Samarqand tibbiyot instituti ochildi. 1931-yilda Toshkent tibbiyot fakulteti O'rta osiyo davlat universitetidan ajratilib, Sog'liqni saqlash xalq komissariatiga tegishli mustaqil O'rta Osiyo Tibbiyot instituti tashkil qilindi. Institutning birinchi direktori qilib tibbiyot fakultetining ijtimoiy gigiyena kafedrasini 1924-yildan 1930-yilgacha boshqarayotgan tibbiyot fanlari doktori, professor G.P.Fyodorov tayinlandi. 1932-yil 1-yanvar holatida institutda 177 ta o'qituvchilar shulardan professorlar 25 ta, dotsentlar 26 ta, assistentlar 104 tani tashkil qilib, 1049 ta talaba tahsil olgan, bulardan 316 tasi O'zbekiston xalqi vakillari bo'lgan. Institut tarkibida 4 ta fakultet tashkil qilingan. 1932-yilda Toshkent shifokorlar malakasini oshirish instituti tashkil etildi. 1937-yili Toshkent farmatsevtika instituti ish boshladi. Ayni o'sha vaqtlarda ilmiy tadqiqot institutlari ham barpo etildi. 1937-yilda Toshkentda sil, 1940-yilda qon quyish institutlari

bor edi. Sanoat korxonalarini va qishloq joylariga ko'plab shifokorlar yuborildi, shahar va qishloqlarda yangi kasalxonalar, poliklinikalar, ambulatoriyalar ochildi, havosi sof va xushmanzara joylarda iqlimiy dam olish maskanlari va shifoxonalar barpo etildi.

1924-yilda qizil imperiya yagona Turkistonni parchalab, bir nechta respublikalar tashkil qildi. Shuningdek, Xiva xonligi tugatilib, uning o'rniga tuzilgan Xorazm xalq sovet respublikasi ham O'zbekiston respublikasining tarkibiy qismi-okrugiga aylandi. M.M.Maxmudov, B.X.Umrzoqovlarning yozishlaricha, Xorazm okrugida 1926-yilda 160 o'rinli 4 shifoxona mavjud edi. Qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun Xazorasp va Gurlanda 25 o'rinlik shifoxona ochildi. Joylarda 13 ambulatoriya kabinetlari aholiga tibbiy yordam ko'rsatdi. Viloyatda 24 shifokor, 23 feldsher, 5 akusher va 3 tish shifokori ishlagan. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda Xorazm uchun tibbiyot xodimlari sobiq ittifoq va Toshkentda tayyorlanar edi. Birinchi shifokor va feldsherlar Xorazmga 1930-yillarning boshidan kela boshladilar. Ular orasida yuqori malakali shifokorlar bor edi. Masalan, N.Otajonov, I.Abdullayev, M.O'tarov va feldsher E.Allayarov va boshqalar. O'zbekiston mehnatkashlarining moddiy ahvoli ancha yaxshilanib bordi. Natijada Urganch va Xiva shaharlarining budjeti ko'payib bordi. Buni evaziga shifoxonalar va davolash muassasalari soni osha bordi. 1926-yilda Urganchda 4 davolash muassasasi, shu jumladan poliklinika, ambulatoriya, sog'lomlashtirish punkti, tez yordam stansiyasi xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 1928-yilda 10 shifoxona xizmat ko'rsatdi. 1930-yilda 18 shifoxonada 100 o'rinda 80 000 odam davolandi. Xorazm okrugi markazi 1926-yilda Urganch shaxriga ko'chirilgani sababli, sog'liqni saqlash bo'limi va uning rahbari A.N.Nikolayev ham Urganchga o'tkazildi. 1926-yildan Xiva shifoxonasida bosh shifokor vazifasida ishlab kelgan N.O.Otajonov bo'limga 129-yilgacha rahbarlik qildi.

Yerli xalq vakillaridan yetishib chiqqan ilk shifokorlardan biri bo'lgan Abdurahmonjon Matrasulovning ish boshlashi ham aynan shu davrga to'g'ri keladi. 1938-yilda O'zbekistonda o'tkazilgan yangi ma'muriy hududiy chegaralanish natijasida Xorazm okrugi Xorazm viloyatiga aylantirildi. 1940-yilning oxirlariga kelib Urganchda 292 o'rinli 4 ta shifoxona, Xivada esa 205 o'rinli 3 ta shifoxona mavjud bo'lgan. Xivada davolash muassasalarining umumiy soni 46 ta, Urganchda 39 tani tashkil qilar edi. Shu yillarda Xorazmda Xiva va boshqa shaharlarning sanitariya holatini yaxshilashga birmuncha ahamiyat berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzulla Xo'jayev. Tanlangan asarlar II tom. Toshkent-1978.292-294 b.

2.M.G'oyibov,Sh.Jumaniyozov,U.Abdurahmonov.Xiva Tibbiyoti.Toshkent "Istiqlol nuri" 2013.119-121 b.

3.Qodirov Asadulla.Tibbiyot Tarixi."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2005. 168-170 b.

4.Rustamova X.E, Stojarova N.K,Nurmamatova Q.Ch, Abdurashidov Sh.A. Tibbiyot Tarixi. Toshkent 2014. 173-175 b

5.Hamroyeva,I. Xalqimizning asl farzandi// Buxoronoma. -2023.-23 iyun. -B 4

